

BOSH VA KO‘Z LEKSEMALI IBORALARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Xomidova Malohat Oktyabrjon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: O‘zbek tilining o‘ziga xos ifoda imkoniyatlarini turli semantik umumiyliklar ostida birlashgan iboralar orqali ham aniqlash katta ahamiyatga ega. Bunda iboralarni muayyan umumiy va xususiy semalar yordamida tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Kalit so‘zlar: leksema, semantika, frazeologizm, sema

Abstract: It is of great importance to determine the unique expressive possibilities of the Uzbek language through expressions united under different semantic generalities. In this case, it is appropriate to analyze the expressions using certain general and specific terms.

Key words: lexeme, semantics, phraseologism, sema

Biz quyida o‘zbek tilidagi bosh so‘zi ishtirokida shakllangan ayrim iboralarning semantik xususiyatlariga qisqacha to‘xtalib o‘tishga harakat qilamiz.

O‘zbek tilida bosh so‘zi vositasida shakllangan iboralar boshqa shunday birliklar singari ma‘noni kuchaytirish, so‘zlovchi fikrini tinglovchiga bo‘rttirib ko‘rsatish maqsadida qo‘llaniladi. Jumladan, boshingiz omon bo‘lsin, bosh ko‘tarmoq, boshing toshdan bo‘lsin, boshi ochiq, bosh og‘rig‘i, boshi qorong‘i, boshi ko‘kka yetmoq, boshi oqqan tomonga, bosh suqmoq, bosh tortmoq, bosh urmoq, bosh qashimoq, boshi qotmoq, boshiga bitgan, boshida danak chaqmoq. Bular orasida ma‘lum holat, harakat, tilak, turlicha maqsadlarga qaratilgan ekspressiv ifodalar o‘zaro farqlanadi. Masalan, boshning ma‘lum darajadagi jismoniy harakati, holati bilan bog‘liq frazeologizmlar: boshini quyi egmoq, boshi xam bo‘lmoq, bosh ko‘tarmoq kabi. Bunday iboralar boshning harakati, holatini tasvirlash orqali insonda kechayotgan ma‘lum ruhiy holatni ochib beradi. Masalan, boshini quyi egmoq iborasi uyat-nomusdan boshini ko‘tara olmaslik holatini bildiradi.

Shuningdek, ma‘lum ijtimoiy holat bilan bog‘liq iboralar sirasiga boshi ochiq, boshi bog‘liq kabilar mansub bo‘lib, ular oilaviy holat bildiruvchi o‘zaro zidlikka ishora qiluvchi birliklardir: boshi ochiq – oilasi yo‘q, boshi bog‘liq – oilali yoki unashtirilgan. Boshi qorong‘i iborasi esa ma‘lum jismoniy holatga, homiladorlikka nisbatan ishlatiladi.

Bosh qashimoq iborasida tig‘iz vaqtga aloqadorlik aks etadi, boshi oqqan tomonga iborasida esa o‘rin, joyga bog‘liq harakat, to‘g‘ri kelgan tomonga yo‘nalish haqidagi holat ko‘rsatiladi. Bosh suqmoq, bosh urmoq, bosh tortmoq iboralarning

ma'nolari ham o'zgacha. Birinchisidan aralashish, ikkinchisida bo'ysunish, uchinchisida esa inkor etish holatlari ifoda qilinadi.

Boshiga bitgan, boshida danak chaqmoq, bosh og'rig'i singari iboralar ko'pincha biror-bir noo'rin harakatga nisbatan qo'llaniladi. Bosh so'zi orqali shakllangan iboralar tilak bildirish, istakni ko'rsatish uchun amaliy nutqimizda tez-tez ishlatilib turadi: boshingiz omon bo'lsin, boshing toshdan bo'lsin kabi.

O'zbek tilining o'ziga xos ifoda imkoniyatlarini turli semantik umumiyliklar ostida birlashgan iboralar orqali ham aniqlash katta ahamiyatga ega. Bunda iboralarni muayyan umumiy va xususiy semalar yordamida tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Umuman, o'zbek tilidagi iboralarning semantik imkoniyatlarini aniqroq belgilash, ularning matn doirasida uslubiy voqelanishini ko'rsatishga alohida e'tibor zarur.

O'zbek tilida ko'z harakati, holati bilan bog'liq frazeologizmlar ko'plab uchraydi: ko'ziga qon to'lmoq, ko'zga ko'rinmoq, ko'zdan kechirmoq, ko'zining paxtasi chiqmoq, ko'z bo'yamoq, ko'ziga chalinmoq, ko'zi qinidan chiqib ketmoq, ko'zini suzmoq, ko'z olaytirmoq, ko'zda tutmoq, ko'ziga cho'p tiqmoq, ko'zi moshdek ochilmoq, ko'zini yog' bosmoq singari. Bu iboralar, bir tomondan, inson ruhiy holatini ko'z harakati orqali ifodalashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ma'lum vaziyatlarni aniqlashtirishga yordam beradi. Masalan, ko'ziga qon to'lmoq, ko'zi ola-kula bo'lmoq, ko'zining paxtasi chiqmoq, ko'zi qinidan chiqmoq iboralari g'azablanish yoki qo'rqish ma'nolarini bildiradi. Bu frazeologizmlarda umumiy, integral semalar bilan birga, o'ziga xos differensial semalar ham mavjud. Keyingi birliklardagi "qo'rqish" semasi ko'ziga qon to'lmoq frazeologizmida kuzatilmaydi.

Xuddi ko'ziga qon to'lgan odamdek labining cheti uchib qo'yadi.

Berilgan gapda keltirilgan ko'ziga qon to'lgan iborasi semalari tarkibida "holat", "hayajonlanish", "g'azablanish", "asabiylik" semalari kuzatilmoqda.

Akmal ... ko'zi ola-kula bo'lib ketdi gapidagi ko'zi ola –kula bo'lib ketdi iborasi semalari tarkibidagi "qo'rqish", "tasodifiylik" semalari ko'ziga qon to'lmoq iborasi tarkibidagi ayrim semalar bilan bevosita zidlanadi.

Ko'zga ko'rinmoq iborasida "tanilish", "e'tibor" semalari, ko'zda tutmoq iborasida "maqsad", "nazarda tutish" semalari mavjud bo'lib, ularni umumlashtiruvchi belgi "e'tibor" semasidir.

Ko'ziga cho'p tiqmoq va ko'z bo'yamoq iboralarida ham ma'lum umumiy holatlar ko'rinadi, ulardagi "chalg'itish", "yolg'onchilik" semalari bilan bir qatorda, ko'ziga cho'p tiqmoq iborasidagi "laqillatish", ko'z bo'yamoq frazeologizmida "yashirish" semalari o'zaro farqlanadi.

Ko'zi moshdek ochilmoq, ko'zini yog' bosmoq iboralari tarkibidagi holat" semasi integral bo'lgani holda, ularni o'zaro zidlik munosabatidagi iboralar sifatida ko'rsatish mumkin. Birinchi iborada ko'zi moshdek ochildi, ya'ni biror narsaning

ta'siri oqibatida nimadandir xabardor bo'lish nazarda tutiladi. Ikkinchi ko'zini yog' bosdi iborasida esa hech nimaga e'tibor qaratmaslik, hovliqish holatlari ifodalanadi. Ularni o'zaro farqlovchi sema "aniqlik" va "noaniqlik", "xabardorlik" va "e'tiborsizlik" semalari sanaladi.

Tiniq tortib, sharqirab yotgan suvdan ko'zini uzsa, qani, atrofiga qarab qo'ysa, qani!

Ko'zini uzmoq frazeologik birligi ma'nolari tarkibida "tikilish", "davomiylik", "qiziqish", "zavqlanish" singari semalar mavjud bo'lib, ushbu iboradagi o'ziga xos belgilar ana shu semalar bilan kuzatiladi.

O'zbek tilidagi ko'z ochmoq belgisi bilan bog'liq frazeologizmlar doirasida ko'zni ochdi, ko'zi ochiq iboralari alohida farqlanadi. Masalan:

Hech kim ko'zi ochiq turib,..

Birinchi gapdagi ko'zi ochiq turib frazeologizmi ma'nolari tarkibida "tiriklik", "yosh", "keksalik" semalari bo'lib, ko'z ochishim bilan iborasida esa "uyg'onish", "tuzalish" semalari ustunlik qilmoqda. Ikkinchi gapdagi frazeologizm ma'nolari doirasida "uyg'onish" semasi kuzatilmogda.

Xullas, o'zbek tilidagi ko'z leksemasi ishtirokida shakllangan iboralar ma'nolarining rang-barang ifodalari bilan alohida o'rin tutadi.